

TAFAKKUR ZIYOSI

Tafakkur ziyosi 2/2021
ilmīy uslubiy jurnal



yuklamani subyektiv baholash (RPE) shkalasi va yurak qisqarishlari soni o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik quyidagi 2-rasmda tasvirlangan.

2-rasm: Mashg'ulot va musobaqa sharoitida yuklamani subyektiv baholash shkalasi (RPE) va yurak qisqarishlari soni o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik.



2-rasmda aks ettirilganidek, sportchining yurak qisqarishlari soni va uning jismoniy yuklamalarga javob reaksiyasi o'rtasida ijobiy bog'liqlik qayd etilgan. Mashg'ulot jarayonida jismoniy yuklamani subyektiv baholash (RPE) va

yurak qisqarishlari soni o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik darajasi $r=0.731003$ ni tashkil etgan bo'lsa, musobaqa sharoitida bu ko'rsatkich $r=0.755394$ ga teng ekanligi aniqlandi ($P<0.05$).

Xulosa. Dzyudochilar musobaqa va mashg'ulot yuklamalari shiddatini o'zaro taqqoslash natijasida musobaqa yuklamalari shiddati va darajalari mashg'ulotga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Musobaqa sharoitida jismoniy yuklamalarga tezroq va eng maqbul darajada moslashish uchun mashg'ulot yuklamalari shiddatini musobaqa faoliyati talablariga muvofiqlashtirish kerak. Buning uchun mashg'ulot jarayonida bajariladigan ixtisoslashgan mashqlarni bajarish shiddatini oshirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, ixtisoslashgan mashqlar seriyalari orasidagi tiklanish vaqtini ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Ixtisoslashgan mashqlarni bajarish ketma-ketligi, ularning vaqt xarakteristikasi bevosita musobaqa faoliyati talablariga moslashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TASVIRIY-IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Nafisa Muxafarova Arifbekovna - o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limning bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tasviriy-ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarining takomillashtirish yo'li to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о путях совершенствования технологических методов подготовки учителей изобразительного искусства высшего образования к изобразительно-художественной деятельности.

Abstract: This article provides information on ways to improve the technologies of training future teachers of fine arts of higher education for visual and creative activities.

Калит so'zlar: Emotional, zehin, texnika, komponent, kompozitsion, vizual, tafakkur.

Ключевые слова: Эмоциональный, ментальный, техника, компонентный, композиционный, визуальный, совершенствование.

Keywords: Emotional, mental, technic, component, composition, Visual, contemplation.

Har bir kelajak avlodning ta'lim yo'lini individuallashtirish uchun ko'p bosqichli va yaxlit ta'lim tizimini yaratish davrida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash mas'uliyatli ish hisoblanadi. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, soha mutaxassislarigina emas, balki bo'lajak o'qituvchilar oldiga ham yuksak talablar qo'yilishi tabiiy.

Muammo chuqur bilim va zamon talablariga javob beradigan o'qituvchilar kadrlariga bo'lgan ehtiyoj va umumiy madaniy va nazariy-pedagogik savodxonligining kamligi, ularning ko'pchiligida haqiqiy mahoratlil kadrlarning yo'qligi, bo'lajak o'qituvchilarining tasviriy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish va uni tashkil etishga tayyorligi o'rtasidagi farq tufayli oldinga surildi.

Milliy dasturda ko'zda tutilganidek, bo'lajak o'qituvchilarni mustaqil tasviriy-ijodiy faoliyatga tayrlash, ijodiy fikrlashga o'rnatish, buning uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish va axborotlar almashuviga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim sharoitida tayyorlangan kelajakdagi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari tasviriy va ijodiy faoliyatini to'liq tashkil etishga tayyor emas. Bundan tashqari, iqtidorli talabalarga tayanish mumkin emas. O'qituvchi bo'lishni istagan har bir kishini o'qitish zarur. Bu pedagogik ta'limning mazmunini, o'quv rejalarini, pedagogik amaliyotlarni boshqa tashkil etishni, turli maxsus kurslarni, yangi usullardan foydalanishni va yaratishni o'z ichiga oladi.



O'zbek tasviriy va amaliy san'ati hamda dizayn yo'nalishlarini yanada rivojlantirish, xalqimizning ushbu nafis san'atlarga bo'lgan estetik ehtiyojini qondirish, keng yo'nalishda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarining ijodiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ularga shart-sharoit yaratish, badiiy salohiyatini oshirish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini keng yo'lga qo'yish hamda O'zbekiston Badiiy akademiyasining faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida qaror belgilandi.

Ushbu fikrlarda asosan san'at orqali yoshlarimiz ongi, shafiq, imyon e'tiqodini shakllantirib, ular ma'naviyatini rivojlantirishga da'vat etilgan.

Oliy o'quv yurtlari oldida turgan vazifalardan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, talabalarning tasviriy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi doimiy izlanishga muhtojdir. Bu tasviriy san'at o'quvchisining spetsifik o'ziga xos ishi doimiy-ijodiy xarakterga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Talabalarda tasviriy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosini o'zaro bir-biriga bog'liq bir qator faktorlarni hisobga olgan holda yechish tala etiladi. Bunda talabalarning badiiy estetik tarbiyalarining badiiy-estetik tarbiyalarini yaxshilash yo'llarini izlash, ular shaxsini ijodiy yo'nalishda shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy va pedagogik tayyorgarlik darajalarini oshirish, turli xil hozirgi zamon pedagogik va psixologik bilimlarni tasviriy san'at o'qitish jarayoniga qo'llashning usul, shakl va vositalarini izlash bu muammoning muvoffaqiyatli hal qilishga olib kelishini ta'kidlash mumkin.

Bugungi kunda jamiyatdagi yuz berayotgan katta o'zgarishlar maktab oldiga o'quv faoliyatining ijodkor shaxsini shakllantirish bilan bog'liq muammolar echimini hal etish vazifasini qo'ymoqda. Bu muammolarning echimini topishda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tasviriy-ijodiy faoliyatda vazifalarni turli materiallar va texnikada ishlash, bolalarning ijodiy tashabbusini uyg'otishi, fantaziyasi va tasavvurlarini o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ushbu faoliyatda bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yaratuvchanlik, ijodga noan'anaviy yondashish va o'z fikrida turli ko'nikmalarini oshirishi, maqsadli, o'z ustida tinimsiz ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Mazkur masala moliyalashtirish, tashkiliy-huquqiy va kadrlar bilan bog'liq alohida tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatmoqda.

XX asr oxiri XXI asming dastlabki yillari davomida xorijda, MDHda, xususan mamlakatimizda bo'lajak mutaxassislarining axloqiy, estetik, badiiy-estetik, ma'naviy, ekologik, iqtisodiy tarbiyasi, kasbiy, umumpedagogik, didaktik, kasbiy-madaniy tayyorgarligi yo'nalishlarida falsafiy, pedagogik, psixologik tadqiqotlar olib borildi, qo'llanmalar, risolalar chop

etildi.

Muammoning ilmiy-nazariy asoslari mamlakatimizning metodist-olimlari R.Choriev, R.Axmedov, M.Nabiev, N.Qo'ziboev, B.Boboev kabilar bilan birga B.Jalolov, J.Umarbekov, I.Turg'unnazarov, Y.U.Taldikin, V.Bumakin, S.Alibekov, Akmal Nur, L.Ibragimov, T.Kuryazov, A.Ikromjonov, V.Oxunov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ma'lum darajada o'z ifodasini topgan.

Insonda iqtidomning kurtaklari deganda layoqat, iste'dod va zehn tushunchalari kiradiki, bu o'z vaqtida aniqlab rivojlantirib borilishi zarur. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'rganuvchilarda tasviriy-ijodiy qobiliyatlarini bir qator komponentlarini rivojlantirish va mukammallashtirishga yordam beradi. Bularga biz naturani yaxlit idrok etish, fazoviy, kompozitsion va obrazli tafakkur, xotira, tasavvur, xotira, tasavvur, malakalarini yaxshilash imkonini beradi.

Tasviriyotgan borliqni idrok etish-bu uning o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish, solishtirish, vizual kuzatish natijalari asosida to'plangan ma'lumotlarni tushunish yoki aniq tasviriy vazifani anglab etish bo'lib hisobdanadi. Tushunish bu yerda tasavvur va tahlil qilish imkoniyatlaridan foydalangan holdagini ko'zlangan natija berishini anglatiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy faoliyatga tayyorlashda, pedagogik innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, tasviriy san'at asarlarining ijodiy ko'rgazmalarini tashkil qilish, tasviriy-ijodiy tadbirlarning nazariy va amaliy bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lgan mutaxassisliklarni tayyorlashga yo'naltirish zarur. Shuningdek mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan madaniy xalq, odob-axloqni ta'minlaydigan, kasbiy malaka, ijtimoiy-pedagogik bilimlarni singdiriladigan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimi, ilmiy-pedagogik va metodik ta'minotni amalga oshiruvchi mexanizmlarni qo'llash bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim zamin bo'la oladi.

Erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'rifatni yuksaltirish jahon andozalariga javob beradigan, yangi avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Madaniy me'ros va yuksak badiiylik milliy an'analarni rivojlantirish, undan foydalanish, undagi ijodiy faoliyat uslublarini joriy etish, tabiiy materiallar bilan ishlash, oliy ta'lim talabalarida qunt, chidam, qat'iyat, tasviriy san'atning falsafiy, psixologik qimolarini o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy, siyosiy-g'oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, qo'zallikni seza bilishga, tasviriy san'at asarlarini kitob o'qigandek o'qiy olishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, tasviriy

ijodiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kun o'qituvchisi bolalar bilan ishlaganda bu qobiliyatlarning yanada samaraliroq rivojlanishiga yordam berishi, o'quvchilarning aqliy va amaliy malakalarini faollashtirishni ta'minlaydigan ta'lim usullari va metodlarini qo'llashga diqqatini qaratishi lozim. Buning uchun o'qituvchi ta'lim muassasasidagi shart-sharoitlar va o'z imkoniyatlaridan kengroq foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimizda ushbu yo'nalishga ilg'or pedagogik tajribalar va ta'lim nazariyasiga oid yutuqlarni amaliyotga joriy etish bugungi kunda yildan yilga ortib bormoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy faoliyatga jalb etish kabi ko'plab tajribalar vujudga kelmoqda va to'planmoqda. Azaldan ijodkorlikning boshlanishi bo'lgan insondagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi bevosita bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi bo'lajak pedagoglarni ham, ilmiy tadqiqotchilarni ham birdek qiziqtirib keladi. Shaxsning shakllanishi, qobiliyatlarni rivojlantirish hanuzgacha zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

Hayotimizga, faoliyatimizga globallashtirish jarayonining tez sur'atlar bilan kirib kelayotgan bir davrda, o'z bilimi, kuchi, imkoniyatlariga tayanadigan, xalq, mamlakat manfaatlarini o'z manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan mutaxassislarni tayyorlash masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, mamlakatda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida mustaqil, ijodiy fikrlovchi, davr fani, texnikasi va uning ishlash texnologiyasini mukammal egallagan, ishbilarmon mutaxassislarni tayyorlash bugungi oliy ta'lim muassasalarida oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Talabalarimizning ijodiy xarakterga ega bo'lgan faoliyatning muayyan mahsulida amalga oshadigan harakat malakalarida namoyon bo'ladigan tasviriy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va shakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvdan keng foydalanish jamiyat va davlatni istiqbolli rivojlanishi, mamlakatning jahondagi yetakchi o'rinlarni egallashining muhim omili ekanligi rivojlangan mamlakatlar misolida

ham namoyondir.

Bo'lajak o'qituvchi kamolotida berilayotgan mustaqil o'quv topshiriqlari, muammoli yechimga qaratilgan munozarali dars shakllari va audio vizual vositalarga asoslanilgan o'quv materiallari kuchli ijtimoiylashtiruvchi ta'sir ahamiyatiga ega. Aynan mana shunday o'qitish usullari vositasida talabalarni oliy ta'limdagi o'quv faoliyatiga tayyorlash, mantiqiy va tanqidiy tafakkurini shakllantirish, mavjud tasviriy-ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga imkon yaratiladi. Bu esa o'z-o'zidan o'qituvchi-talaba hamkorligini talab etadigan pedagogik faoliyatdan iborat bo'ladi.

Ta'limdagi ta'sirchan usullar, ongli maqsadga asoslangan yondashuvlar shaxsni har tomonlama kamolotini ta'minlaydi. Bugungi kunda, talabalarining mustaqil fikrlash, tasviriy-ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga e'tibor kuchayib, talaba ta'lim subyektiga aylangan bir davrda muammoli o'qitishning ahamiyati kuchaydi. Ze'ro muammoli ta'lim ilmiy bilish, pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar va ularni echishga qaratilgan talabning mustaqil faoliyati, tasviriy-ijodiy faoliyatini o'stirish orqali o'quv natijalarini maqsadli o'zlashtirishga qaratilgan ta'limdir.

Oliy o'quv yurtining talabalarida tasviriy san'at fanlari o'qitish davrida muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiye etiladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarning tasviriy-ijodiy faoliyatini takomillashtirishning samaradorligi, birinchi navbatda, unda inson omili qanday hal qilinilayotganligi, boshqacha aytganda, umumta'lim maktablarining malakali o'qituvchilar kadrlar bilan qay darajada ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini tasviriy-ijodiy faoliyatga tayyorlash kelajakda emas, balkim hozirgi kunda talabaning pedagogika Oliy ta'limdagi o'quv bilim faoliyati davomida shakllantiriladi. Har qanday ta'lim muassasasining vazifasi mutaxassisi uni o'rab turgan muhit va madaniyat talablari asosida tarbiyashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komarova T.S. *Razvitie xudojestvennyx sposobnostey doshkolnikov. «Mozaika-Sintez». // Monografiya 2014, S. 144bet*
2. Sultanov H.E. *Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish (tasviriy san'at darslari misolida). Zamonaviy ta'lim // Sovremennoe obrazovanie jurnali, 2016, NF 4. 12-13 bet*
3. Avliyevkulova N.M. *Bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy faoliyatga tayyorlashda san'at va madaniyat sohalarining o'imi. "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzisidagi Respublika 12-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to'plami. Toshkent, 2020, B, 76-78 bet*
4. Lixachev V.T. *Pedagogika-M.Vladov, 2003, -98 bet*